

**JAMIYATDAGI NOGIRONLIK MUAMMOSI HAMDA USHBU MASALANI TADQIQ
ETISHNING RETROSPEKTIV TAHLILI****Xolto'rayeva Zahro Doniyorovna***Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ijtimoiy ish ta'lif
yo'naliishi 2-kurs talabalari.***Sherov Ma'ruf Boltaevich***Ilmiy rahbar: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamiyat hayotida nogironlarni himoya qilish mexanizmlarini rivojlantirish, jamiyat hayotida faol ishtirok etishlarini ta'minlash, ularning huquqlarini hurmat qilinishi uchun imkoniyatlar tizimini yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Nogironligi mavjud insonlarni qo'llab-quvvatlash va himoya qilish faqat maxsus xizmatlarni taqdim etishdangina iborat bo'lib qolmasdan, balki ularga kamsitish nazari bilan qarashga barham beruvchi chora-tadbirlar amalga oshirilishini, nogironlarning fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari ta'minlanishini kafolatlovchi hamda bu boradagi to'siqlarni olib tashlovchi qonunlar, dasturlar qabul qilinishini ham nazarda tutadi.

Kalit so'z va iboralar: nogironlarni himoya qilish, kamsitish, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar.

Аннотация: В данной статье одной из актуальных задач считается разработка механизмов защиты инвалидов в жизни общества, обеспечение их активного участия в жизни общества, создание системы возможностей для соблюдения их прав. сегодня. Поддержка и защита людей с ограниченными возможностями заключается не только в предоставлении специальных услуг, но и в мерах по устранению дискриминации, обеспечению гражданских, политических, экономических, социальных и культурных прав людей с ограниченными возможностями, а также предусматривает принятие законов и программ, гарантирующих и устраниющих препятствия в этом отношении.

Ключевые слова: защита инвалидов, дискриминация, социально-экономические права.

Annotation: In this article, one of the urgent tasks is to develop mechanisms for protecting people with disabilities in the life of society, ensuring their active participation in the life of society, and creating a system of opportunities to respect their rights. Today. Support and protection of people with disabilities consists not only of providing special services, but also of measures to eliminate discrimination, ensuring civil, political, economic, social and cultural rights of people with disabilities, and also involves the adoption of laws and programs that guarantee and eliminate obstacles in this regard.

Key words: protection of disabled people, discrimination, socio-economic rights.

Hayotdagi har bir hodisa o'zining shakllanishi va rivojlanishining ma'lum qonuniyatlariga ega. Har qanday bilim aniq tarixiy fakt bilan bog'liq hodisaga asoslangan holda shakllanadi.

Nogironlarga kamsitish nazari bilan qarash muammosi insoniyatning butun tarixi davomida mavjud bo'lgan va bugun ham barham topmagan. Sog'liq jihatdan imkoniyati cheklangan insonlarning jamiyat hayotiga integrasiyalashuvining muhim ijtimoiy-psixologik omillaridan biri jamiyatning - sog'lom insonlarning nogironlarga munosabati bilan bog'liq. Jamiyatning ko'pchilik a'zolarida shakllangan nogironlarga nisbatan noto'g'ri munosabat aksariyat hollarda jamoatchilik ongida sog'liq jihatdan imkoniyati cheklangan insonlarning ijobiy timsoli shakllanmaganiga borib taqaladi.

O'zbekistonda har doim xalqimizga xos bo'lgan rahmdillik, muhtojlarga yordam qo'lini cho'zish, ularni turli vaziyatlarda qo'llab-quvvatlash kabi fazilatlar yuksak qadrlangan. Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan insonlarning ta'lim, sog'liqni saqlash va ishga joylashish kabi yo'naliislardan kengroq foydalanishlari uchun imkoniyatlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, juda ko'plab muammolar, jumladan nogiron kishilarning jamoat transportidan foydalanishi, turli xizmatlarni olishi bilan bog'liq masalalar, jamiyatdagi stereotiplar va boshqalar hali yechim topmagan. Ammo vaziyat asta-sekin ijobiy tomonga o'zgarib bormoqda, nogiron insonlarni ham jamoatchilik, ham davlat darajasida tinglash, tushunish va qo'llab-quvvatlashga tayyorlik ko'zga tashlanmoqda.

Insoniyat o'z tarixida har doim ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan imkoniyatlari cheklangan odamlar bilan to'qnash kelgan. Rivojlanishning turli davrlarida ularga munosabat ham turlicha bo'lgan. Nogironlik tushunchasi lotincha invalidus so'zidan olingan bo'lib, aynan «kuchsiz, kuchli emas» degan ma'no anglatadi, ya'ni, in — «emas» + validus — «kuchli», boshqacha aytganda, bu – jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy jihatdan kamchiligi bo'lgan inson faoliyatida mavjud to'siq yoki cheklovlarini bildiradi¹³.

Stigmatizasiya (yunon tilidan tarjimada yorliq, tamg'a degan ma'no anglatadi) – individlarni ajratib qo'yish, yoki ularga «tamg'a bosish», tashqi belgilariga qarab «tuzalmas», «noqis» kabi ijtimoiy yorliqlarni yopishtirish. Stigmatizasiya natijasida inson boshqalardan ajratib ko'rsatiladi va jamiyatning boshqa a'zolariga qarama qarshi qo'yiladi. Natijada inson rasmiy yoki norasmiy tashkiliy tuzilmadan tushib qolishi va marginallar safini to'ldirishi mumkin.

Qadim zamonlardan beri olimu, ulamolar, faylasuflarni og'ir kasalliklarga chalingan yoki rivojlanishdan orqada qolgan kishilarning yashashi, ularni davolash va o'qitish masalalari o'ziga jalb etib kelgan. Qadimgi Yunoniston, Rim, Vizantiya, Sharq faylasuflari va donishmandlari, jumladan Aristotel, Seneka, Siseron va boshqalarning asarlarida jamiyat va jismoniy imkoniyatlari cheklangan insonlar o'rtasidagi munosabat mavzusi ham e'tibordan chetda qolmagan.

¹³ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Инвалидность>

Odatda sog'lig'i bilan bog'liq muammolari mavjud kishilar soni urush va harbiy harakatlardan keyin ko'payib ketgani bois, ana shu urushlar paytida yaralangan, jarohat olgan, kasallik orttirgan sobiq harbiylarga aholida e'tibor qaratilgan. Sog'lig'ida muammosi mavjud bo'lган ana shu sobiq jangchilar «nogiron» (invalid) deb atalgan. Fransiyada ushbu atama armiyada harbiy xizmatni o'tagan va davlat oldida xizmat ko'rsatgan, yaralangani, jarohat olgani yoki qarigani bois harbiylikka yaramay qolgan jangchilarga nisbatan qo'llanilgan. Besh yuz yildan ortiq vaqt mobaynida davlat sog'lig'i bilan bog'liq muammosi mavjud insonlarni ikki guruhga ajratib kelgan. Birinchi guruhga armiyada xizmat qilgan va yaralanish, jarohat olish yoki keksayganligi sabab sog'lig'ida muammolar paydo bo'lган nogironlar kiritilgan. Ikkinci guruhdan esa hyech qachon harbiy xizmatni o'tamagan, jarohatlari, kasalliklari tug'ma, kundalik turmushda yoki ishlab chiqarish jarayonida orttirilgan bolalar hamda katta yoshdagi aholi kiritilgan. Bu guruh mayib-majruxlardan iborat bo'lган.

Qadimgi Yunonistonda harbiy nogironlar oilasi bilan davlat qaramog'ida bo'lган. Rimda esa nogironlarga yer uchastkalari, janglarda qo'lga kiritilgan o'ljadan ulush ajratilgan, shuningdek pul ta'minoti belgilangan. Nogironlar jamiyatning obro'-e'tiborli kishilari sanalishgan, hamda ijtimoiy ta'minotning anchayin rivojlangan tizimi ular xizmatida bo'lган. Sog'lig'i bilan bog'liq muammosi mavjud kishilarning ikkinchi toifasi esa odatda g'aribxonalarda, nogironlar uylarida saqlangan. Bu yerda ular taom va boshpana bilan ta'minlangan.

O'rta asrlarda Fransiya va Angliyada harbiy nogironlarga qarash monastirlar zimmasiga yuklatilgan. Ispaniyada, keyinroq esa Angliya va Gollandiyada yaralangan va jarohat olgan harbiy nogironlarga pensiya va bir martalik moddiy yordam to'lanishi tizimi yo'lga qo'yilgan¹⁴. 1606 yilda Fransiya qiroli Genrix IV tomonidan yaralangan, kasalga chalingan va qarib qolgan harbiylar va ularning oila a'zolari uchun harbiy g'aribxonalar tizimi joriy etilgan. U ikkita, ya'ni nasroniy rahm-shafqat hamda avliyo Lyudovik gospitallaridan iborat bo'lган.

1671 yilda Lyudovik XIV Parijda mashhur Hotel des invalidsga asos soladi. Xuddi shu davrda Angliyada ham ana shunday uylar paydo bo'ladi: ular avval Chelsi va Grinvichda (dengizchilar uchun), sal keyinroq esa Berlinda va Avstriyada ochiladi. XVI asrdan boshlab Fransiyada nogironlarga davlat g'aznasidan nafaqa tayinlanadi. Ammo Parijda nogironlar uyi (Hotel des invalids) ochilganidan keyin monastirlarga nafaqa ajratilishi to'xtatiladi va nafaqalarning hammasi ana shu uydagi nogironlarning ta'minotiga yo'naltiriladi. Ayniqsa, Napoleon I nogironlarga alohida g'amxo'rlik ko'rsatgan. U o'z armiyasi faxriylarining obro'sini yuqoriga ko'tarib qo'yan edi. Shundan keyin Yevropaning boshqa davlatlarida ham nogironlar rotalari paydo bo'lib, ularda nogironlar jangovar xizmat bilan bog'liq bo'lмаган harbiy lavozimlarga tayinlangan. Bu rotalar turli shaharlarga joylashtirilgan. Ularda harbiy xizmat davrida yaralangan, jarohat olgan va kasallik orttirgan quyi lavozimdagi harbiylar xizmat qilib,

¹⁴ История инвалидных обществ. <http://independentfor.com/material/histunion.htm>

ichki xizmat va front orti bilan bog'liq turli vazifalarni bajarishgan. Bugunga kelib, Fransiyada bunday nogironlar rotalari butunlay barham topgan.

1887 yilda Prussiyada 6 ta nogironlar rotasi mavjud bo'lib, ularning har birida o'rtacha 100-120 kishi xizmat qilgan, shuningdek saroy tasarrufida gvardiyachi nogironlar rotasi faoliyat olib borgan¹⁵.

1832 yil Myunxenda (Bavariya, Germaniya) Yogan Edler fon Kurs bir qo'li yo'q o'g'il bolalar uchun xalq maktabi bilan bir xil va teng ta'lim beradigan tarbiya institutini tashkil etadi. Uning maqsadi nogiron bolalarga hunar yoki «erkin kasb» o'rgatish bo'lган. Bu bolalar tibbiy nazorat ostida bo'lган va davolash muolajalari olishgan. 1874 yildan institutda bir qo'li yo'q qiz bolalar ham o'qitila boshlaydi va ular bu yerda tikish, bichish, to'qish va uy-ro'zg'or yuritish ko'nikmalarini o'rganishadi. 1897 yilga qadar Germaniyada Myunxen institutiga o'xshash 8 ta maktab ochiladi va ularda jami 550 nafar nogiron bolalar ta'lim olishadi¹⁶.

1872 yilda filantrop Gans Knudsen (Kopengagen, Daniya) mayib-majruxlarga yordam jamiyatini, ortopediya klinikasini, kasbiy ta'lim maktabini va ishlaydigan nogironlar uchun ustaxona ochadi. Mazkur maktab faoliyati 1884 yil Kopengagen shahrida bo'lib o'tgan shifokorlarning Xalqaro kongressida tilga olinadi. Mayib-majruhlar bilan ishlashdagi bu tajribaga shifokorlar ijobiylar baho berishadi va tez orada ushbu tajriba Skandinaviya davlatlari (Shvesiya, Norvegiya)da ham jismoniy imkoniyati cheklangan kishilarga yordam ko'rsatish sohasiga joriy etiladi.

XIX asr oxirlarida AQShda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami bilan ishslashning yangi yo'naliishi – ijtimoiy xizmat yuzaga keladi. Insonparvarlik faoliyatining bu yo'naliishi shifokorlar tomonidan kasallar, mayib-majruxlar, nogironlar, bolalar va emigrantlar bilan ishslash uchun tashkil qilingan. 1926 yilda AQSh universitetlarida turli ixtisosliklar bo'yicha ijtimoiy sohada: bolalar, ayollar va nogironlar bilan ishslash uchun mutaxassislar tayyorlashga kirishiladi.

Bu jarayonda birinchi o'rinda aholining extiyojmand qatlamlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar turadi. Jamiat tomonidan keng ko'lamli ishlar bajarilmoqda hamda ularning doirasida turli, ayniqsa yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish, ularni davolash, tabiiy ofatlarni bartaraf etishda yordam ko'rsatish, shuningdek aholining extiyojmand qatlamlari, yolg'iz keksalar, ko'p bolali kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, ko'mak va yordamga muhtoj boshqa qatlamlarning muammolarini hal etishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Nogironlarga kamsitish nazari bilan qarash muammosi insoniyatning butun tarixi davomida mavjud bo'lган va bugun ham barham topmagan. Inson huquqlari tizimida nogironlarni himoya qilish mexanizmlarini rivojlantirish ularning mustaqil shaxslardan xayriya yordami oluvchi sifatidagi maqomini tubdan o'zgartirish imkonini beradi. Bunday yondoshuv nogironlarning jamiat hayotida faol ishtirok etishlarini ta'minlash orqali ularning huquqlari hurmat qilinishi uchun imkoniyatlar izlashga qaratilgandir. Nogironlarning huquqlarini qo'llab-quvvatlash va himoya qilish faqat

¹⁵ История инвалидных обществ. <http://independentfor.com/material/histunion.htm>

¹⁶ Мисяк С.А. Запорожский медицинский журнал №5, том 2, 2006, с. 160

maxsus xizmatlarni taqdim etishdangina iborat bo'lib qolmasdan, balki ularga kamsitish nazari bilan qarashga barham beruvchi chora-tadbirlar amalga oshirilishini, nogironlarning fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari ta'minlanishini kafolatlovchi hamda bu boradagi to'siqlarni olib tashlovchi qonunlar, dasturlar qabul qilinishini ham nazarda tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. T., 2023 y.
2. «O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonuni. <http://www.lex.uz>.
3. Ijtimoiy ta'minot Xalqaro Assosiasiyasi. Ijtimoiy siyosat byulleteni. 2012. 23-bet.
4. История инвалидных обществ. <http://independentfor.com>.
5. Бразевич С., Сидорова А. Инвалидность: проблемы преодоления стигматизации и становления толерантного сознания. <http://www.science-education.ru>
6. <http://uza.uz>
7. www.un.org